



“QUTADG’U BILIG” ASARIDA UY VA YOVVOYI HAYVONLAR ASOSIDAGI O’XSHATISHLAR TAHLILI

Dilobar Odilova

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti
universiteti o‘qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8433742>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 02-October 2023 yil

Ma’qullandi: 06- October 2023 yil

Nashr qilindi: 12- October 2023 yil

KEY WORDS

adib mahorati, o‘xshatish,
obrazlilik, tafakkur, zoonimlar,
tasavvur, sifatlash, milliy-mental
xususiyat.

ABSTRACT

Ma’lumki, til har bir millatning asrlar mobaynida shakllangan yashash tarzini, an’ana va urf-odatlarini o’zida aks ettiradi. O’xshatishlar har bir tilning ta’sirchanligini, so’z boyligini, jozibasini namoyon qiluvchi til birliklaridan biri hisoblanadi. Barcha tillarda o’ziga xos o’xshatish so’zlari shakllangan bo’lib, bu ana o’sha xalqning madaniyatiga borib taqaladi. Yusuf Xos Hojibning “Qutadg’u bilig” asari ham betakror o’xshatishlarga boyligi bilan alohida ahamiyatlidir. Ushbu maqolada asarda uchragan uy va yovvoyi hayvonlar asosidagi o’xshatishlar hamda ularning tahlili haqida ma’lumot beriladi.

O’xshatishlar tashqi dunyoni bilishning eng qadimiy usullaridan hisoblanadi. O’xshatishlar muayyan xalqning ilk tafakkur tarzini va tasavvurlarini tamsil etadi. Ularda ma’lum davrda yashagan ajdodlarimizning kechinmalari, tasavvurlari muhrlangan bo’ladi. O’xshatishlar – har bir xalqning lingvomadaniy boyligi bo’lib, ular milliy dunyoqarash, dunyodagi predmet, hodisa va harakatlarni milliy tasavvurlarga ko’ra taqqoslash, qiyoslashdir.¹ Shu o’rinda o‘zbek tili ham betakror o‘xshatishlarga boy tildir. Turkiy xalqlar tafakkurini ifodalashda o’xshatishlarning o’ziga xos o’rni haqida Mahmud Qoshg’ariyning “Devonu lug’otit turk” asarida alohida ta’kidlangan: “Biron xotin tuqqanda doyardan: tulki tug’dimi yoki bo’rimi deb so’raladi. Ya’ni qizmi o’g’ilmi demakdir. Qizlar aldoqchi hamda yalinchoq bo’lganliklari uchun tulkiga, o’g’il bolalar ulardagi botirlikka asosan bo’riga o’xshatiladi.

Ma’lumki, insonlarning o’xshatish va qiyoslashga asoslangan obrazli fikrlash jarayonining vujudga kelishi badiiy tafakkurning o’sishi, izchil rivojlanishida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday mushohadalarning vujudga kelishida avlodlar va ajdodlarning tabiat va koinot olamini bilishga, bunda mavjud sirlarni yechishga intilishlari, biroq izohlashdagi o’zliklar tufayli ularga nisbatan sirli va ilohiy kuch sifatida baho berish, shuningdek, mifik obraz sifatida tasavvur etish hollari vujudga kelgan. Xususan, ibtidoiy dunyoqarash va diniy e’tiqod xilma-xilliklari hayvonot, nabotot va koinot olamidagi mavjud narsalarga, jonzotlarga nisbatan totemistik munosabatlar tufayli she’r, arslon, yo’lbars, qoplon

¹ Mahmud Qoshg’ariy. “Devonu lug’otit-turk”. – Toshkent: G’afur G’ulom nashriyoti, 2017. – B. 167.

va burgut, lochin, qirg'iyilarni mard, jasur botir, dovyurak, kishilarga; qarg'a, quzg'unlarni qonxo'r, toshyurak kishilarga; tovus, bulbullarni go'zal, chiroyli xulqli kishilarga; gul, g'uncha va oy, yulduz, quyosh singarilarni go'zal va suluv qizlarga; yantoq, saksavul kabilar xunuk kishilarga nisbatan tashbeh etilishi og'zaki va badiiy ijodda keng tarqalgan eng qadimgi tasavvurlar mahsulidir. Bularning barchasi insoniyat o'zini tabiatning sehrli olami bilan yoki aksincha, tabiatdagi mavjud narsa va hodisalarni insoniyatning xulq-atvori, ichki dunyosi bilan bog'lashi, ya'ni qiyoslashi, o'xshatishi, sifatlashi kabilar bilan bog'liq bo'lib, ular tilimizdagi ko'plab badiiy ifoda vositalarning vujudga kelishida asos bo'ladi.

O'xshatishlar tarkibida o'xshatishga asos bo'luvchi turli xildagi so'zlar mavjud bo'ladi. Masalan: hayvonlar, qushlar, o'simliklar va boshqa predmet nomlari bo'lishi mumkin. Muayyan matn tarkibida ifodalangan hayvon nomlarining aksariyatida millat va jamiyatning mental xususiyatlari o'z aksini topadi. "Qutadg'u bilig" asarida ko'p qo'llanilgan tasvir vositalaridan biri, shubhasiz, o'xshatishdir. Muallif o'xshatish san'ati orqali o'ziga xos bo'lgan ifodalarni yaratgan. Asarning boshidan to oxirigacha insonga xos bo'lgan fazilatlarni yanada chuqurroq anglanilishi uchun ushbu lingvistik vositadan mohirona foydalanilgan. Albatta, bu qiyoslar o'sha davr muhiti, madaniyati, urf-odatlarini bilan chambarchas bog'liqdir. Yusuf Xos Hojib "Qutadg'u bilig" asaridagi mavzularni yoritishda turli xildagi zoonim va qushlar obrazidan mohirona foydalangan. Asarda hayvonlar, qush nomlari va ular bilan bog'liq tasviriy vositalarni turli o'rinlarda uchratishimiz mumkin. Ushbu doston tilida uchraydigan ko'plab tarixiy qimmat kasb etuvchi lug'aviy birliklar qatorida zoonimlar ham xalqimiz tarixini, turmush-tarzini, uzoq o'tmishdagi mashg'ulotini, bir so'z bilan aytganda, madaniy va ma'naviy kechmishini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, asar leksikasi, uning tarkibidagi zoonimlar guruhi ham tematik jihatdan rang-barangdir. Tahlillar asosida quyidagicha umumlashma xulosalar qilish mumkin.

Doston leksikasida ko'pgina lisoniy dalillar borki, ba'zi so'zlarning etimologiyasini aniqlashda hamda unutilib ketgan ko'plab tarixiy so'zlarni tiklash va izohlashda yordam beradi. Asarni lingvistik nuqtayi nazardan tahlil etish o'zbek adabiy tilining lug'at tarkibini boyitishda katta ahamiyat kasb etadi. Dostonda zoonimlar o'z nominativ funksiyasidan tashqari, xilma-xil uslubiy qirralar ham kasb etib borgan. Shu jihatdan ham mumtoz asar tilida saqlanib kelinayotgan boy lug'aviy birliklarni til va nutqiy jarayon bilan bog'liq holda o'rganish tilimizda nihoyatda keng tarqalgan polisemiya hodisasi, o'xshatishlar, nom ko'chish usullari, so'zlarning shakl va ma'no munosabatlariga ko'ra turlarini yuzaga kelish jarayoni hamda bu hodisalarni nutqiy jarayonda uslubiy bo'yoq kasb etishi singari ko'plab xususiyatlarni yorqin tasavvur etishda katta imkoniyatlarni yuzaga keltiradi. Shuning uchun ham biz tahlil qilgan 50 dan ziyod zoonimlarni ko'rsatib o'tilgan tasniflarida o'z aksini topgan semantik xususiyatlari, eng avvalo, kishilarning xilma-xil hayvonlarni atashdagi turlicha belgilariga asoslanadi. Bu belgilar ayni paytda ta'kidlanganidek, insonlarning xilma-xil xatti-harakatlarini, xulq-atvorlarini ochib berishda ham uzoq asrlardan buyon qimmatli ma'lumot sifatida foydalanib kelinmoqda. Badiiy asarlarda uchraydigan mazkur xususiyatlarini hisobga olgan holda ularni keng miqyosda leksik-semantik hamda uslubiy jihatdan tahlil qilish har tomonlama foydalidir. Zoonimlar faqat hayvon nomlarini ifodalamasdan, balki turli xil uslubiy bo'yoqdorlik xususiyatlariga ham egadir. Insonlar kundalik turmushlarida ham ulardan turlicha foydalanadilar. Bundan tashqari, badiiy adabiyotda ham ular har xil vazifa bajarishga xoslanib keladi. Insoniyat azal-azaldan borliqdagi hayvonlar va jonivorlar bilan juda yaqin

munosabatda bo'lgan. Buning muayyan sabablari bor: birinchidan, hayvonot olami insonlar uchun asosiy ozuqa manbaidan biri bo'lsa, ikkinchidan, ular kundalik ishchi kuchi vazifasini bajargan va uchinchidan, ov qilishda asosiy vosita hisoblangan. Ayni holat insonlarning hayvonot olami sir-asrorlarini azaldan yaxshi bilib olishga, uy hayvonlarini o'zlariga yaqin tutishiga, ularning ko'magidan samarali foydalanishga yoki yovvoyi hayvonlarga nisbatan jiddiy mas'uliyat bilan munosabatda bo'lishga, umuman, ularga alohida e'tibor bilan qarashga olib kelgan. Shu bois yozuvchi dostonning badiiyatini yanada kuchaytirish, syujet bayonini qiziqarli va tinglovchilar diqqatini jalb etish maqsadida uy va yovvoyi hayvonlar, har xil qushlar va jonivorlar nomlaridan badiiy-tasviriy ifoda vositasi sifatida foydalangan. Bu o'rinda ta'kidlash lozimki, ularning har biri matnda muayyan uslubiy vosita vazifasini bajargan. Asarda ishtirok etgan zoonim nomlarini statistik tahlil qilganimizda, ularni 50 tadan ziyod ekaniga guvoh bo'ldik va ular asosidagi o'xshatishlarni tasvirlashga harakat qildik.

Turkiy xalqlar, xususan, o'zbek xalqining yashash tarzini belgilaydigan, tirikchilik faoliyati bo'lgan chorvachilik, ovchilik maqollarda ifodalangan hayvon nomlarining tur jihatdan xilma-xil bo'lishini ta'minlagan, shuningdek, "Qutadg'u bilig" dagi zoonimlarning o'xshatish vositasi sifatida qo'llanishiga asos bo'lgan.² Shu jumladan, Yusuf Xos Hojib zoonimlar orqali insonning ham ijobiy ham salbiy fazilatlarini tasvirlagan hamda shu yo'l orqali betakror obrazli ifodalarni yuzaga keltirgan. Zoonim so'zi yunonchadan olingan bo'lib, ya'ni zoonim [zoo...+ yun, onyma – nom, ism] hayvon nomlari bilan bog'liq so'zlardir.³ "Qutadg'u bilig" asarida qo'llanilgan zoonimlar ko'chma ma'noni hosil qilishga, obrazlilik va ta'sirchanlikni oshirishga xizmat qilgan. Ta'kidlash o'rinliki, bunday o'xshatishlar hozirgi davr adabiyoti uchun ham asos vazifasini o'taydi desak mubolag'a bo'lmaydi. Epik dostonlarining ta'sirchanligini, badiiy qimmatini oshirish usullaridan biri turli xildagi yirtqich va uy hayvonlari, qush va parrandalarga xos bo'lgan sifatlarni asar qahramonlariga ko'chirish bo'lib, muallif xalq og'zaki ijodiga xos bu vositadan ham juda o'rinli foydalangan. Adabiyotshunoslikda o'xshatish *tashbeh* termini bilan yuritiladi. "O'xshatish – tasavvur birligi. Tasavvur esa mavjudotga asoslangan xayolot natijasidir".⁴

Asarni o'qish davomida kitobxon zoonimlar ishtirokidagi betakror o'xshatishlarga guvoh bo'ladiki, bu esa asar mavqeyini yanada oshirishga xizmat qiladi. D.Xudoyberganova linvokulturologiya bo'yicha izlanish olib borgan V.Maslova fikriga tayanib shunday deydi: "Xalqning muayyan predmet, belgi, harakat-holatiga munosabati, assotsiativ fikrlash tarzi o'xshatishlarda ham namoyon bo'ladi. Jumladan, buni o'zbek tilidagi insonga doir o'xshatishlarda ham ko'rish mumkin. O'zbek tilidagi insonga doir o'xshatishlar 8 ta ma'noviy guruhni tashkil etib, ularda hayvon, o'simlik, meva nomlarini bildiruvchi so'zlar etalon sifatida ko'p qo'llanganligi ona tilimizda muloqot qiluvchi til sohiblarining etnopsixolingvistik xususiyatlarini namoyon qiladi⁵.

"Qutadg'u bilig" dagi o'xshatishlar haqida gap ketar ekan taniqli xorijlik olimlar ham bunga befarq emasligini anglab yetamiz. "Qutadg'u bilig" asari tilining leksik-semantik o'ziga xosliklari haqida gap ketganda eng avvalo, *tashbeh* (ya'ni o'xshatish) san'ati haqida so'zlash

² Тошева Д. Зооним компонентли мақолларнинг лингвокултурологик хуссиятлари. Филол.фан. док. (PhD) дисс.автореф. – Тошкент, 2017. – Б.14.

³ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. III жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2007. – Б.159.

⁴ Худойберганова Д. Ўзбек тилидаги бадий матнларнинг антропоцентрик талқини. Филол. фан. док. дисс. автореф. – Тошкент, 2015. – Б.31.

⁵ Rustamov A. Navoiyning badiiy mahorati. – Toshkent, 2002. – B.68.

lozim. Shoir turkiy she'riyatga arab va fors she'riyatidagi usullarni olib kirgan. Garvard universiteti tadqiqotchisi Annemarie Schimmel asardagi o'xshatishlar haqida shunday yozadi: "Asarning poetik tili ajoyibdir, tabiat tasvirlari qadimgi arab mumtoz adabiy tilidagi kabi go'zaldir; tun tasviri esa fors she'rlaridagi kabidir; "qarg'adek hushyor", "jar yoqasi oldidagi qirg'iy kabi uzoqni ko'radigan", "tunda boyo'g'idek bedor" singari yorqin tashbehlariga boy⁶.

"Qutadg'u bilig" asarida *arqun (chopqir ot), arslan (arslon), esri (qoplon), boka (ajdarho), adig' (ayiq), to'ng'uz (to'ng'iz), bo'ri (bo'ri), tilku (tulki), tevä tuya, it (it), üki (ukki), çayri (lochin), saqizyän (zag'izg'on), quzğun (quzg'un)* kabi hayvon va qushlar nomlari zikr etilgan va o'xshatish san'atini yuzaga keltirishda faol ishtirok etgan. Ayniqsa, "Lashkarboshilar qanday bo'lishi kerakligini aytadi" bobida ajoyib o'xshatishlarni keltirib o'tadi. "Lashkarboshining kuchliligi arslonga, doimiy hushyorligi zag'izg'onga, baquvvatligi qoplonga, hujmkorligi va dushmanga hamlasi to'ng'izga, mardonavorligi bo'riga, jangda mohirligi, hiyla va tadirkorligi tulkiga, shiddati ayiqqa, qasoskorligi qo'tos va tuya erkagiga o'xshatiladi⁷. Asar tabdiliga nazar tashlaydigan bo'lsak, masalan:

To'ng'uz- teg tetimlig bo'ri-teg küçi

Adig'layu irgar qotuz-teg öçi

To'ng'izdek chovut qiluvchi, bo'ridek kuchli,

Ayiqdek hiylakor, qo'tosdek qasoskor bo'lishi kerak.(QB,379).

Ushbu birgina baytning o'zida adib to'rtta hayvonni o'xshatish sifatida olgan. Asar matnida tong'iz zoonimi **to'ng'uz** shaklida berilgan. Bu hayvon xususiyati orqali lashkarboshilarning o'z dushmanlariga hamla qilishi nazarda tutilgan. Bu o'rinda "hujmkorlik" semasi qiyoslashga asos bo'lgan.

Keyingi hayvon bo'ri "*bo'ri*" shaklida kelgan bo'lib, Yusuf Xos Hojib asarda bo'ri obraziga ko'p marotaba murojaat qilgan. Izohli lug'atdan bu hayvon nomiga nazar tashlaydigan bo'lsak, uning qanday xususiyatlarga ega ekanligini ko'rishimiz mumkin. Bo'ri – sutemizuvchilarning itsimonlar oilasiga mansub yirtqich hayvon; qashqir. O'zining qonxo'rliqi, kuchliligi bilan ajralib turadi. Ko'chma ma'noda yovuz, qonxo'r, shafqatsiz odam timsolida ishlatiladi. "*Bo'rining yesa ham yemasa ham og'zi qon*" – ya'ni yomonligi bilan tanilgan, yomonligini qo'ysa ham qo'ymasa ham – yomon degan ma'noda ishlatiladigan ibora.⁸ Demak, ushbu baytda bo'rining xususiyatlari orasidagi "kuchlilik" semasi o'xshatish san'atiga asos bo'lgan.

Ayiq hamda qo'tos hayvonlari asosidagi qiyoslashlarda "hiylakorlik", "qasoskorlik" ma'nolari o'z ifodasini topadi. -teg, -layu so'zlari yuqoridagi o'xshatishlarni yuzaga keltiruvchi vosita hisoblanadi. Bo'ri zoonimi turli ma'nolarda kelib, badiiylikni ta'minlovchi asosiy obrazga aylangan. Quyidagi baytda bo'ri zoonimi kuchlilik va jasurlikni emas, balki g'alamislik va ochko'zlikni ifodalab kelgan. Bu ziddiyat xalq og'zaki ijodida ham ko'zga tashlanadi: bo'ri goh mardlik, goh botirlik xususiyatlarini aks ettiruvchi obraz sifatida qo'llansa, goh laqma, noshud kimsalarning ramziy timsoli sifatida namoyon bo'ladi.

Yeme alçi bölsa qizil tilkü-teg

Tetir buğrasi-teg kör och çurse keg

⁶Tasleem Sh. "Qutadg'u billig" dostoning leksik-semantik o'ziga xosliklari. – Toshkent, 2020. – B.56.

⁷Ўзбек тилининг изоҳли луғати. V жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2007. – Б.14.

⁸Ўзбек тилининг изоҳли луғати. I жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2007. – Б.114.

*Yana qizil tulki kabi hiylachi bo'lsa,
Tuya erkagidek uzoq o'ch saqlasa, ko'r (QB,379).*

Bilamizki, tulki hayvonlar ichida eng ayyori va sezgiri hisoblanadi. Bo'risimonlar oilasiga mansub, tumshug'i uzun, dumi mayin uzun junli, o'ta sezgir va ayyor yirtqich sutemizuvchi hayvon. *Ko'chma ma'noda* o'taketgan ayyor, makkor odam haqida⁹. Ya'ni bunda muallif askarlar jang paytida ayyorlik, sezgirlik, mohirlikda xuddi tulkiday bo'lishi nazarda tutilgan. Asarda tulki zoonimi "hiyla va tadbirkorlik" semalarini ifodalash uchun ishlatilgan. Bunday baytlar asarda juda ko'p o'rinlarda uchraydi. Bu esa bizga asardagi zoonimlarni tadqiq qilish jarayonida ularning semantik-funksional xususiyatlarini ochishda katta xazina bo'lib xizmat qiladi.

Doston matnida "tuya" ma'nosida *tevā, tetir* kabi leksemalar qo'llangan. So'z tuya burniga qiyoslangan:

*Burundugluy-ol söz tevā burni -teg
Barur qančā yatsa tetir boyni -teg (QB,93).*

"So'z tuya burnidek jilovlangan bo'ladi, tuya bo'ynidek qayerga bursa, shu tomonga boradi". So'zni tuya burniga o'xshash – unga jilov solsa bo'ladi, yoxud u tuyaning bo'yni kabidir – yetovga yurayveradi. Tuya burnini to'gri tomonga yo'naltiradigan jilovdor kerak. Bu o'rinda "burish", "boshqarish", yo'naltirish", qo'llash" semalari qiyoslashga asos bo'lgan. So'z ham kishi tomonidan boshqarilmasa, uning boshiga kulfat keltiradi. Shuning uchun so'z qo'llashda ehtiyotkorlik talab etiladi.

*Boδ qōy sani-ol begi qoyčisi
bağirsaq keräk qōyqa qōy tütğüči (QB,359).*

*Xalq bir qo'y kabi, beg esa qo'ychivondir,
qo'y uchun qo'y tutuvchisi mehribon (jonkuyar bo'lishi kerak).*

Bu baytda xalq qo'yga, uni boshqarib turadigan beklar qo'ychivonga o'xshatilgan. Xalqning qo'yga o'xshatilishida "juvoshlik", "ojizlik", "itoatkorlik", bekning qo'ychivonga o'xshatilishida esa "himoya", "boshqaruvchi" semalari asos bo'lgan.

*Qara qarni toδsa kör uδ-teg yatur,
yawa sözgä awnur özin semritür*

*Johil qorni to'ysa, sigirdek yotadi, ko'r,
Behuda so'zga g'arq bo'lib o'zini semirtiradi (QB,201).*

Asarda johil kishi sigirga qiyos qilingan. Uning dardi faqat qorin to'ydirish va behuda umr o'tkazish. Johil so'zdan so'zning farqini bilmaydi. Behuda va keraksiz so'zlarga ham quloq tutib yotaveradi. Sigir gapga tushunmaganidek, nodon va johil kishi ham ezgu so'zlarni tinglamaydi. Chunki uning ongi zararli va keraksiz so'zlar bilan to'lgan. Johilning sigirga o'xshatilishida "ongsizlik", "aqlsizlik", "befahmlik" semalari asos bo'lgan¹⁰.

*Til arslan turur kör eşikdā yatur
aya äwlüg er saq başıñni yeyür.*

*Til hovlida (ya'ni qafasda) yotgan arslon kabidir
ey qafasdaqi (makkor) vahshiy boshingni yeydi (QB,87).*

⁹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. V жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2007. – Б.83.

¹⁰ Холмуродова М. Холмуродова М. "Қутадғу билиг" лексикаси. Филол. фан. фалс. док. (Phd)... дисс. – Тошкент, 2019. – Б. 100.

Asardagi ushbu o'xshatish o'zining badiiy ta'sirchanligi bilan alohida ahamiyatlidir. Yusuf Xos Hojib tilni arslonga o'xshatar ekan, buning zamirida kishi yomon so'zlardan tiyilishi, tilini jilovlay olishi kerakligi o'z ifodasini topgan. Aks holda uning tili o'z boshiga yetishidan kitobxonlarni ogohlantirgan. Ayrim hollarda bir hayvon turli o'rinlarda turlicha bo'lgan obrazlarni yortishda ham foydalanilgan. Bu o'rinda o'sha hayvonning turli xil qirralari, xususiyatlari alohida inobatga olingan va muallif fikrini yanada aniqroq yoritishga, bo'rttirib ko'rsatishga xizmat qilgan desak mubolag'a bo'lmaydi. Bu kabi o'xshatishlarda turkiy xalqlarning yashash tarziga xos bo'lgan hayotiy lavhalar aks etgan. Umuman olganda bitta obraz orqali turli xil o'xshatishlarni keltirish Yusuf Xos Hojibning mohir ijodkorligi va "Qutadg'u bilig" asarining badiiy jihatdan yuksakligidan dalolat beradi.

Kür arslanqa oxšar bu beglär özi,

bušursa kesär baš e bilgi yaruq.

Beglar – bu yurakli arslonga o'xshaydi,

Ularni g'azabga keltirsang, bosh kesadi, ey ravshan fikrli (QB,179).

Asarda ko'rinib turganiday, bu yerda beklar arslonga o'xshatiladi. Keyingi misrada esa mazmun yanada oydinlashadi va beklarning g'azabi ko'p narsalarni keltirib chiqarishi, hattoki, "bosh kesish" gacha yetib borishi nazarda tutilgan. Bunda qiyoslash to'g'ridan to'g'ri *oxšar* so'zi orqali ifoda etilgan. Demak, bu baytda arslonning dovyurakligi emas, balki uning yirtqichligi, vahshiyliги inobatga olingan holda o'xshatish san'ati amalga oshirilgan. Qayd etish joizki, dostonida ushbu hayvon nomi astroponim sifatida "burj" nomini ham ifodalab kelgan. Yirtqichlar etlon sifatida tanlanadigan, masalan, tashlanishi, sapchish kabi harakatlar ifodasida ularning aynan yirtqich ekanligi o'xshatish semantikasidagi salbiylikka sabab bo'lgan holda, baquvvatlik va pahlavonlik ifodasida ayiq, arslon, yo'lbars, she'r kabi etalonlar salbiy bahoga ega bo'lmaydi. Buning asosiy sababi sifatida ular ishtirokidagi o'xshatishlardan, asosan, dushman bilan olishish, o'z yurtini himoya qilish kabilar tasvirlangan kontekstlarda foydalanilishini ko'rsatish mumkin. Demak, ular o'zida yirtqichlik, qonxo'rlik bilan birga baquvvatlik, pahlavonlik va jasurlik kabi milliy madaniy konnotatsiyalarga ega bo'lgan etalonlardir.

Ögul qiz atasi bu emgek körar

Bala mehnat ersa yanañ- teg yuder

O'g'il- qiz otasi bu mashaqqatlarni ko'taradi,

Balo -mehnatlarni esa fil kabi ko'taradi (QB,527).

Asarda ilgari surilgan axloqiy xislatlarni sanab o'tish olimning ta'lim-tarbiya, axloq masalalarini qay darajada chuqur bilganligi adolat, ishonch, sadoqat, xushmuomalalik, shirin so'zlik, saxovat, mardlik, hurmat va ehtimom, tadbirkorlik, aql-zakovat, halollik, ezgulik kabi hislatlar ulug'lanadi. "Qutadg'u bilig" asaridagi bosh masalalardan biri komil insonni tarbiyalashdir. Yusuf Xos Hojib bu asari orqali o'z tasavvurida eng komil, jamiyatning o'sha davrdagi talablariga javob bera oladigan insonni qanday ko'rgan bo'lsa, shu asnoda o'z prinsiplarini bayon etadi. Mana shunday axloqiy masalalardan biri oila va farzand tarbiyasidir. Bu umuminsoniy axloqiy normaga Sharq etikasiga ahamiyat berib kelgan muallif Sharq xalqlarining ulug' an'anasini, oilaviy hayotini, turmush tarzi va tarbiya usullarini chuqur bilgan va mazkur axloqiy muammoni o'ziga xos yo'nalishda talqin qilgan. Ota-onani filga o'xshatishda "sabrlik", "chidamlilik" semalari asos vazifasini o'tagan.

Tugel avçi it-teg et-oške baqin

*Semiz bolsa bilmeş idişi haqin
Qariñ todse avqa yugurmes yatür
Idisi tilekini barça qodur
Tanu jonga nazar sol, u aynan ovchi it kabidir,
Semiz bo'lsa, egasi haqqini ham bilmaydi.
Qorin to'ysa, ovga turmaydi, yotadi,
Semiz bo'lsa, egasini haqqini ham bilmaydi (QB,355).*

Bu baytda tan-u jon ovchi itga qiyos qilinadi hamda insondagi xiyonat qilish, me'yordan oshish illatlari qoralanadi. O'xshatish -teg vositasi orqali amalga oshiriladi. Yuqoridagi bayt hozirgi kundagi "It qutursa, egasini qopar, chumchuq qutursa, burgutga chopar" hamda "It semirsa egasini qopar" maqollariga to'g'ri keladi. O'z vaqtida yordam bergan, qo'llab-quvatlagan insonlarni tanimaslik, mensimaslik nazarda tutilgan. Yuqoridagi baytda "ochko'zlik", "me'yordan oshish" semalari orqali o'xshatish san'ati hosil bo'lgan.

*Dunyo sevuvchilarni sevmaydi, kiyikdek qochadi,
Undan qochuvchiga yopishib oladi, oyog'ini quchadi.
Sewiglini sewmáz kedik teg qaçar
qaçig'ılıqa yarçur adaqın quçar.
Davlat kiyik kabi, u kishidan qochadi,
Agar u kelib qolsa, mahkam tut, tizginlab ol (QB,163).*

Kiyik chaqqonligi va serharakatlilik bilan boshqa hayvonlarda ajralib turadi. Bu baytda shoir insonga davlat, boylik, omad har doim ham birdek berilavermasligini nazarda tutgan. Qo'lga davlat kelganda uni mahkam tutishlik, undan to'g'ri maqsadda foydalanish kerakligi uqtiriladi. Hozirda ham xalqimizda yigit-kishiga omad bir marta beriladi degan naql uchraydi. Davlatning kiyikka o'xshatilishida "chaqqonlik", "serharakatlilik" semalari asos bo'lgan.

Xulosa qilish mumkinki, Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asaridagi o'xshatishlar asarning badiiy kuchi bilan birga uning estetik kuchini oshirishga, fikrni aniq ifodalash, obrazlilikni ta'minlashga xizmat qilgan. Doston matnidagi tashbehlar eski turkiy tilning boyligini namoyon qilgan, asarning badiiy qimmatini yanada oshirgan, tasvirning mukammal, yanada tushunarli bo'lishini ta'minlagan. "Qutadg'u bilig" dagi o'xshatishlarning xususiyati shundaki, ular ko'zda tutilgan har qanday fikrni ravshanlashtirishga, shu obrazni aniq tasavvur etishga xizmat qiladi. "Qutadg'u bilig" dagi o'xshatishlar narsa-hodisalar mohiyatini aks ettirish bilan bir qatorda milliy-mental xususiyatlarni yoritishda ham ahamiyatlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdurahmonov G'. (2011). To'xliyev B., Rustamov A., Dadaboyev H. Qutadg'u bilig. I, II, III, IV, V jildlar. –Toshkent: Jahon print, 2011. – 859 b.
2. Абдурахмонов Ф. Ўзбек халқи ва тилининг шаклланиши ҳақида. – Тошкент, 1999. – 88 б.
3. Абдурахмонов Ф., Шукуров Ш. Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1973. – 320 б.
4. Абдурауф Фитрат. Энг эски турк адабиёти намуналари. – Тошкент, Мумтоз сўз, 2008. – 248 б.
5. Арзиев Р. Лексико-стилистические особенности языка поэмы "Кутадғу билик" Юсуфа Хас Хаджиба. Дисс. канд. филол. наук. –Алма-Ата, 1991. – 146 б.

6. Касиева А. Лексико-семантический анализ метафор «Кутадғу билиг». – Бишкек, 2005. – 57 б.
7. Tasleem Sh. “Qutadg‘u bilig” dostonining leksik-semantik o‘ziga xosliklari. – Toshkent, 2020. – B.56.
8. Тўлаганова Н. Ҳозирги ўзбек шеърлятида бадий санъатларнинг лисоний-услубий таҳлили. Филол. фан. номз...дисс. автореф. – Тошкент, 2008. – 22 б.
9. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. V жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2007. – Б.14.
10. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. I жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2007. – Б.114.
11. Холмуродова М. Холмуродова М. “Кутадғу билиг” лексикаси. Филол. фан. фалс. док. (Phd). дисс. – Тошкент, 2019. – Б. 100.
12. Худойберганова Д. Ўзбек тилидаги бадий матнларнинг антропоцентрик талқини. Филол. фан. док. дисс...автореф. – Тошкент, 2015. – 46 б.
13. Усмонова Ш. Олтой тилларидаги муштарак маиший лексика тадқиқи. Филол. фан. док. дисс. автореф. – Тошкент, 2011. – 42 б.
14. Шамсиддинова Ҳ. Ўзбек тилида сўзларнинг функционал-семантик синонимлари. Филол. фан. док. дисс... автореф. – Тошкент, 1999. – 44б.
15. www.natlib.uz
16. www.ziyonet.uz
17. www.researchgate.net

INNOVATIVE
ACADEMY